

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

Ro‘yxatga olindi  
№ MO 10-34  
2021-yil



O‘zbekiston Respublikasi Oliy va  
o‘rta maxsus ta‘lim vazirining  
2021-yil "15" dekabr dagi  
538 - sonli buyrug‘i bilan  
tasdiqlangan.

“Rangtasvir (turlari bo‘yicha)”

yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarini  
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi

Toshkent – 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rtta maxsus va  
professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini  
Muvofiqlashtiruvchi kengashining*

*2021-yil 25.12. dagi 9 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan*

**Tuzuvchilar:** “Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etishi” moduli:  
yu.f.n., prof. V. Topildiyev, t.f.n., dos. B. Sh. Usmonov, t.f.n., dos.  
R. A. Xabibullayev  
“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” moduli: f.d., prof.  
R. Nurimbetov, i.f.d., prof. F. Nazarova, p.f.n., dos. M. Dexkanova  
“Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” moduli: p.f.d.,  
prof. N. Muslimov, katta o'qituvchi R. Ishmurov  
“Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” moduli:  
p.f.d., prof. F. Zakirova, t.-m.f.n., dos. V. Karimova  
“Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili” moduli: katta  
o'qituvchilar F. Boysariyeva, N. Djabberova, S. Tadjiabayeva,  
U. Giyasova, Sh. Fayzullayeva  
“Mutaxassislik fanlari” moduli: prof. R. Xudayberganov, san.f.n.,  
dos. D. Kurvazova

**Taqrizchilar:** Xorijiy ekspert: Tyadjun Iun (Lujin Iun) «O'zbekistondagi Koreya  
Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan shartnoma asosida  
MRDI “Miniatur va kitob grafikasi” kafedrasida volonter  
o'qituvchi.

G. Qodirov – MRDI “Mahobath rangtaxviri” kafedrasida professori,  
akademik.

*O'quv dasturi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Kengashining  
qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2021-yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi).*

## Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli, 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6000-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3920-son, 2018-yil 19-dekabrdagi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi PQ-4068-son, 2020-yil 4-fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4584-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejaları asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

### **I. Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar**

- 1.1. Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish.
- 1.2. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.
- 1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.

### **II. Pedagogning axborot va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish**

- 2.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.
- 2.2. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili.

### **III. Mutaxassislik fanlari**

- 3.1. Kompozitsiyada uslublar va badiiy tahlil.
- 3.2. Chizmatasvirda akademik maktab uslubi.
- 3.4. Rangtasvirda akademik maktab uslubi.
- 3.4. Nutq madaniyati.
- 3.5. San'at estetikasi.

### **IV. Malakaviy attestatsiya**

#### **Kursning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- "Rangtasvir (turlari bo'yicha)" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

-mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

-“Rangtasvir (turlari bo'yicha)” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

### **Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

“Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili” modullari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar tegishli ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- kompozitsiyaning badiiy vositalarini;
- shakl va hajm tasvirida obrazni his qilishning ruhiyatga ta'sirini;
- rangtasvir asarlaridagi kompozitsion yechimi va qoidalarini;
- tasviriy san'atda nur-soya xususiyatlarini;
- kompozitsiya qurilishlari va badiiy yechimni;
- kompozitsiyada badiiy fikrlash xususiyatlarini;
- kompozitsiyada kolorit yechimi va inson ruxiyatiga ta'sirini;
- rangtasvir kompozitsiyasini ishlashda tassavvur, anglash, ko'rish va his etish qobiliyatlarini;
- chizmatasvirning tasviriy san'atdagi rolini;
- chizmatasvir turlari va vositalarini;
- chizmatasvirda akademik maktab uslublarini;
- chizmatasvirda akademik tasvirlashning ahamiyati va talablarini;
- chizmatasvirning ikki o'chamlilik ko'rinishlarida ta'sirchanlik va badiiylilikni;
- jahon chizmatasvir san'at asarlari bilan tanishishda badiiylilikning asosiy qonuniyatlarini;
- rangtasvirning tasviriy san'atdagi o'rnini;
- rangtasvir asoslarining vazifasini;
- rangtasvir turlari va vositalarini;
- akademik rangtasvirda naturadan ishlashning ahamiyati va talablarini;

- nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasini;
- zamonaviy nutq madaniyati nazariy va amaliy uslublarini;
- nutq madaniyati va uning meyorlarini;
- muloqot, muomala tushunchalarini;
- san`atning asosiy estetik kategoriyalarini;
- san`at va uning mohiyati, asosiy turlarini;
- estetik munosabat va estetik anglashni;
- san`atning shaxs estetik madaniyatini shakllantirishdagi o`rnini *bilishi* kerak.

#### **Tinglovchi:**

- kompozitsiyada fazoviy muhitni his qilish;
- tasviriy san`atda ko`nikma, mahorat va kuzatuvchanlik tuyg`ularini rivojlantirish;
- rangtasvir kompozitsiyasida shakl va hajm hosil qilish;
- chizmatasvir mahoratini oshirishda nusxa ko`chirish;
- chizmatasvirning turlarini qo`llash;
- chizmatasvirda jahon an`analari va maktablari usullaridan foydalanish;
- rangtasvirda akademik maktab uslublaridan samarali foydalanish;
- rangtasvir kompozitsiyasi qoida va qonunlarini tahlil qilish;
- nutqning uslubiy turlarini qo`llash;
- nutq mahoratini rivojlantirishning o`ziga xos ahamiyatitstsh anglash;
- san`at va uning estetik mohiyatini anglash;
- go`zallik va xunuklik, ulug`vorlik va tubanlik, fojeaviylik va kulgulilik kabi estetik xususiyatlarning san`atda namoyon bo`lishini baholay olish;
- san`at turlari va janrlaridan foydalanish *ko`nikmalariga* ega bo`lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- tasviriy san`atda kompozitsiyani AKT orqali baholash;
- kompozitsiyaning badiiy vositalarini qo`llash;
- rangtasvir asarlaridagi kompozitsion yechimi va qoidalarini taxlil etish;
- chizmatasvir mahoratini oshirishda mustaqil ishlash metodlaridan foydalanish;
- chizmatasvir ishlashda Yevropa maktablari tajribasini amaliyotda qo`llash;
- akademik rangtasvirda mahoratni oshirish metodlarini amaliyotga joriy etish;
- ijodiy ishlarni o`zaro prezentatsiya qilish;
- ovozdan foydalanish va nutq texnikasi rivojlantirish.;
- madaniy nutqning kommunikativ sifatlarini o`rganish;
- o`qituvchining nutq mahorati rivojlantirish;
- badiiy ijodga estetik munosabat tarixini bilish;

- goʻzallikni anglash va baholashda estetika tushunchalarining oʻrni va rolini tahlil etish;
- badiiy asarni estetik idrok etish *malakalariga* ega boʻlishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- ilgʻor xorijiy sanʼat taʼlim muassasalarining tajribalarini oʻrganish. tadbiq etish;
- shizmatasvir va kangtasvirda akademik maktab uslublarini tahlil etish;
- tasviriy sanʼatda akademik rangtasvir kompozitsiyasi orqali ijodiy tafakkur yurita olish;
- akademik chizmatasvir va rangtasvir ishlashda ilgʻor, zamonaviy usublaridan foydalana olish;
- rangtasvirda ranglarning inson ruhiyatiga taʼsirini sanʼat asarlari orqali ifodalab berish;
- ogʻzaki va yozma adabiy til meyorlaridan samarali foydalanish;
- sanʼatning asosiy estetik kategoriyalarini qoʻllash *kompetensiyalariga* ega boʻlishi lozim.

#### **Kurs hajmi**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda oʻquv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati toʻgʻridan-toʻgʻri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi oʻquv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli oʻtgan kurs tinglovchilariga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

### **“RANGTASVIR (TURLARI BOʻYICHA)”YOʻNALISHI BOʻYICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING OʻQUV MODULLARINING MAZMUNI**

#### **I. PEDAGOGNING PROFESSIONAL FAOLIYATIDAGI INNOVATSIYALAR**

##### **1.1. Kredit modul tizimi va oʻquv jarayonini tashkil etish.**

Xorijiy davlatlardagi kredit taʼlim tizimlari: Amerika Qoʻshma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning toʻplash va oʻtkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini oʻtkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS). Kredit tizimi asosida taʼlim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini taʼminlashning innovatsion metodlari. Kredit-modul tizimida talabalarning

mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti. Sillabus. Ta'lim natijalari (Blum taksonomiyasi asosida). Bilim darajalari. Ta'lim natijalarini baholash usullari.

Ta'lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari. Ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni. Pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish. Ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Davlat ta'lim standartlari, tegishli ta'lim (mutaxassislik) yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim standarti, o'quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlari.

## **1.2. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.**

O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmuni va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi, vazifasi va uning metodologik asoslari. Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari. Ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish obyektlari. Innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish.

Zamonaviy universitetlarda texnologiyalar va loyiha boshqaruvi. Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

Infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish. Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish. Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish. Professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatida nashr faolligini rivojlantirish. Xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari va ularning tavsiflari. Ilmiy maqolalarga qo'yilgan talablar, maqolani tayyorlash, chop ettirish tartiblari. Pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, ScienceDirect, Web of Science tizimlari asosida takomillashtirish.



### **1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.**

Professional o'qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlar. Ta'lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorliginirivojlantirish omili.

O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlarini (loyiha, aralash ta'lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Talabalarda tanqidiy, o'zini-o'zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.

Steam-ta'lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san'at, Mathematics – matematika) va STEM-ta'lim (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) xususiyatlari.

## **II. PEDAGOGNING AXBOROT VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

### **2.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.**

Raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. "Elektron universitet" va uning xususiyatlari.

Vebinar, onlayn ma'ruza, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga joriy etish. Masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish.

Ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini takomillashtirish.

Multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini yaratish, ulardan ta'lim tizimida foydalanish. QR-kod va undan foydalanish.

Pedagogik faoliyatda interaktiv infografika vositalaridan foydalanish.

### **2.2. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili.**

Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (English for Specific Purposes) – kasb sohasidan kelib chiqib ingliz tilini o'rgatish. Kasb soha vakillari tomonidan minimal grammatika (Present Indefinite Tense, Present Continuous Tense, Past

Indefinite Tense, Future Indefinite Tense) hamda sohaga oid faol soʻzlarni (minimal 400) yoddan bilishi. Grammatika va leksikani kommunikativ maqsadlarda oʻrgatishga zamonaviy yondashuv. Ingliz tilida autentik vaziyatlarni tahlil qilish. Tinglovchilarda autentik vaziyatlargaoid: e-mail yozish, soʻzlashish (ilmiy yoʻnalishi haqida), tushunish (jarayonni tinglab tushunish) va oʻqib tushunish (gazeta va jurnallardagi kasb sohasiga oid maqolani oʻqish) koʻnikmalarini rivojlantirish.

Sohaga yoʻnaltirilgan mavzularda til koʻnikmalarini rivojlantirish, mutaxassislik fanlarini xorijiy tilda oʻqitishni loyihalashtirish. Ilmiy tadqiqotlarga yoʻnaltirilgan til koʻnikmalarini oʻzlashtirish, ilmiy matnlarning rezyumesini tayyorlash, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash. Xorijiy mutaxassislar bilan muloqot stereotiplari. Elektron xatlar yozish, xorijiy tilda taqdimotlar tayyorlash.

Kundalik va ijtimoiy hayotga oid mavzular: Shaxs va shaxsiyat. Oziq-ovqat. Sihat-salamatlik. Oilaviy qadriyatlar. Shahar va qishloq hayoti. Dam olish va sport bilan shugʻullanish. Kasb-hunar va ishbilarmonlik. Ommaviy axborot. Munosabatlar. Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar sohasidagi etika masalalari.

Rezyume toʻldirish, madaniy hordiq, telefonda suhbat. Sayohat va turizm, transport sohasi, biznes faoliyat, kashfiyotlar, sanʼat, fan, taʼlim va texnologiya sohasi, atrof-muhitni muhofaza qilish. Sohaga oid davrning eng dolzarb muammolarini oʻrganish, muhokama va tahlil qilish

### **III. MUTAXASSISLIK FANLARI**

#### **3.1. Kompozitsiyada uslublar va badiiy tahlil.**

Kompozitsiyaning badiiy vositalari. Kompozitsiyada fazoviy muhitni his qilish. Shakl va hajm tasvirida obrazni his qilish ruhiyatiga taʼsiri. Rangtasvir asarlaridagi kompozitsion yechimi va qoidalari. Tasviriy sanʼatda nur-soya xususiyatlari. Kompozitsiya qurilishlari va badiiy yechim. Kompozitsiyada badiiy fikrlash xususiyatlari. Kompozitsiyada kolorit yechimi va inson ruxiyatiga taʼsiri.

Rangtasvir kompozitsiyasini ishlashda tassavvur, anglash, koʻrish va his etish qobiliyati. Tasviriy sanʼatda koʻnikma, mahorat va kuzatuvchanlik tuygʻularini rivojlantirish. Rangtasvir kompozitsiyasida shakl va hajm hosil qilishni his etish. Tasviriy sanʼatda kompozitsiyani AKT orqali tahlil usullari

#### **3.2. Chizmatasvirda akademik maktab uslubi.**

Chizmatasvirning tasviriy sanʼatdagi roli. Ilgʻor jahon chizmatasvir sanʼati usullarini kadrlar tayyorlash milliy tizimiga jalb etish. Chizmatasvir rangtasvirning asosi sifatida. Chizmatasvir turlari va vositalari. Chizmatasvirda akademik maktab uslubi. Chizmatasvirning kompozitsiyadagi roli. Chizmatasvirda akademik tasvirlashning ahamiyati va talablari. Chizmatasvirda plenerning oʻrni. Chizmatasvir mahoratini oshirishda nusxa koʻchirishning ahamiyati. Chizmatasvirning turli (ikki va uch) oʻlchamlilik xususiyati. Chizmatasvirning ikki oʻlchamlilik koʻrinishlarida

ta'sirchanlik va badiiylik. Chizmasvir ishlashda badiiylik. Chizmasvirda jahon an'analari va maktablari. Jahon chizmasvir san'at asarlari bilan tanishishda badiiylikning asosiy qonuniyatlari. Chizmasvir mahoratini oshirishda mustaqil ishlashmetodlari. Chizmasvir ishlashda Yevropa maktablari.

### **3.3. Rangtasvirda akademik maktab uslubi.**

Rangtasvirning tasviriy san'atdagi o'rni. Ilg'or xorijiy san'at ta'lim muassasalarining tajribalarini o'rganish va milliy kadrlar tayyorlash tizimiga tadbqiq etish. Rangtasvir asoslarining vazifasi. Rangtasvir turlari va vositalari. Rangtasvirda akademik maktab uslublari. Rangtasvir kompozitsiyasida qoida va qonunlarning ahamiyati. Akademik rangtasvirda naturadan ishlashning ahamiyati va talablari. Akademik rangtasvirda plenerning o'rni. Akademik rangtasvirda mahoratni oshirish metodlari. Ijodiy ishlarni o'zaro prezentatsiya qilish.

### **3.4. Nutq madaniyati.**

Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi. Zamonaviy Nutq madaniyati nazariy va amaliy uslublari. Nutqiy faoliyat tushunchalari. Nutq madaniyati va uning meyorlari. Nutqning uslubiy turlari. Nutq mahoratini rivojlantirishning o'ziga xos ahamiyati. nutq odobi, og'zaki va yozma adabiy til meyorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari). Ovozdan foydalanish va nutq texnikasi. Muloqot, muomala tushunchalari. Madaniy nutqning kommunikativ sifatleri. O'qituvchining nutq mahorati.

### **3.5. San'at estetikasi.**

San'atning asosiy estetik kategoriyalari. San'at va uning mohiyati, asosiy turlari. San'at va nafosat. Estetik munosabat va estetik anglash. San'at va uning estetik mohiyati. San'atda estetik tarbiya. Go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojeaviylik va kulgulilik kabi estetik xususiyatlarning san'atda namoyon bo'lishi. San'at turlari va janrlari. Badiiy ijod jarayoni. San'atning shaxs estetik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni. Estetik tarbiya va san'at taraqqiyoti. Badiiy ijodga estetik munosabat tarixi. Go'zallikni anglash va baholashda estetika tushunchalarining o'rni va roli. San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. Badiiy asarni estetik idrok etishning o'ziga xosligi. Estetik tarbiya va uning mohiyati. Estetik tarbiya va badiiy madaniyat.

## **IV. Malakaviy attestatsiya.**

Tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyati natijalari (elektron portfolioda qayd etilgan ko'rsatkichlari), kursni tamomlagandan keyingi onlayn test sinovlari hamda Attestatsiya komissiyasida bitiruv ishini himoya qilish asosida o'tkaziladi.

### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yichako'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Mustaqil malaka oshirish quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish; iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash; ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy loyihalarda ishtirok etish: xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish; ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish; monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashrdan chiqarish; o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish; falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish.

Pedagog kadrlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Mustaqil malaka oshirish davrida pedagoglar asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik amaliyotdan o'tadilar. Pedagogik amaliyot davrida pedagog asosiy ish joyi bo'yicha kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilarini 2 ta darsini kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a'zolari ishtirokida talabalar guruhi uchun 1 ta ochiq dars o'tkazadilar. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan darslar xulosalari kafedraning yig'ilishida muhokama etiladi va tegishli kafedraning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, mustaqil malaka oshirish jarayonida tinglovchi qo'yidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish, kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv rejaları va fanlar dasturlarini shakllantirish;

- o'quv mashg'ulotlarining har xil turlari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo'yicha amaliy mashg'ulotlar)ni tashkillashtirish;

- talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta'lim jarayoni qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyati, talabalarning bilim va

ko'nikmalarini nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta'minlash. iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo'llash;

– oliy ta'limda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

mustaqil ta'lim olish yo'li bilan o'z bilimlarini takomillashtirish.

### **Ko'chma mashg'ulot tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Ko'chma mashg'ulotlar nazariy va amaliy mashg'ulotlarda olingan bilim hamda ko'nikmalarni yanada mustahkamlash maqsadida sohaga oid zamonaviy korxonalar hamda ilmiy muassasalarda tashkil etiladi.

### **Dasturning axborot-metodik ta'minoti**

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalaniladi.

## ADABIYOTLARRO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”. 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston. 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RBQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyun “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-3920-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risidagi PQ-4068-son Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-4584-son Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabr “2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgust “Oliy ta'lim

muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

### III. Maxsus adabiyotlar.

21. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. — Новосибирск: Издательство СФХС, 2015. — 318 с. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

22. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessi podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKSS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

23. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. — Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

24. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. — T.: "Lesson press", 2020. 112 bet.

25. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. — T.: "Fan va texnologiya", 2014. 60 b.

26. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. — T.: "Sano-standart", 2015. — 208 b.

27. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya / N.Yu.Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF ; - Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. — 128 s. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)

28. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. [https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)

29. Qodirxo'jayev F. Badiiy bezak san'ati. Monografiya. — T.: "Ilm ziyo", 2017.

30. R.Xudayberganov. Kompozitsiya. -T.: Sharq nashr, 2008.
31. O‘zbekistonning zamonaviy san’ati. – Toshkent, 2004.
32. Usmonov B.Sh., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020-y. 120 bet.
33. Andrew Paquette. An Introduction to Computer Graphics for Artists.- Springer Publishing Company, Incorporated, USA 2013.
34. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
35. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
36. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
37. Mitchell. H.Q., Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2. MM Publications. 2015. 191.
38. Mitchell. H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183
39. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
40. Paintings: that Changed the World. -Munich. Berlin, London, New York. - 2003.
41. Andrew Paquette. An Introduction to Compyuter Graphic for Artist.- Springer Publihing Company, Incorporated. USA 2013.
42. Rudolf Arnheim. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye.- Univercity of Californiya Press, USA 2004.
43. N.Gilmanova. Katolog-2014. b-10.

#### **IV. Internet saytlar**

44. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
45. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
46. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
47. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.
48. <http://www.dsmi.uz>.
49. <http://www.kino-teatr.ru> – Vse materialy po kino i teatra.
50. <http://www.artsait.ru> – Ensiklopediya russkoy jivopisi.
51. <http://artyx.ru/> – Vseobuyaya istoriya iskusstv.
52. <http://www.art-drawing.ru> - Art-risunok/ kultura iskusstvo galereya kartin novosti



**“ISHLAB CHIQILGAN”:**

Oliy ta’lim tizimida pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy metodik markazi  
Direktor *T. Shoyardonov*  
2021-y

M.O.

**“KELISHILGAN”:**

Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish hamda muvofiqlashtirish boshqarmasi  
Boshqarma boshlig'i *T. Esanboboyev*  
2021-y

M.O.

Kamshobudil Hekmatovning Milliy muassasalar va davlat kadrlari

Rektor *M. A. Kurbanov*

2021-y

Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta’minlash boshqarmasi

Boshqarma boshlig'i *M. A. Kurbanov*

M.O.

2021-y